

IQTISODIY TERMINALOGIYA TARJIMASI MASALALARINING NAZARIY ASOSLARI

Usmonova Ozodaxon Qaxramon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ozodausmonova054@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy terminologiyani tarjima qilishning nazariy asoslari, iqtisodiy terminlarning lingvistik va kognitiv lingvistika terminalogik muommolarining aspekti, ularni tarjima qilish usullari hamda tarjima jarayonida uchraydigan muammolar, iqtisodiy terminlarning shaklanishidagi derivatsion jarayonlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekvivalentlik, adekvatlik va pragmatik moslik tamoyillari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: iqtisodiy terminologiya, tarjima nazariyasi, kognitiv yondashuv, ekvivalentlik, adekvatlik, iqtisodiy diskurs, derivatsion jarayon.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations of the translation of economic terminology, the aspects of linguistic and cognitive linguistics terminological problems of economic terms, methods of their translation, as well as the problems encountered in the translation process, and the derivational process in the formation of economic terms. The study covers the principles of equivalence, adequacy, and pragmatic compatibility.

Key words: economic terminology, translation theory, cognitive approach, equivalence, adequacy, economic discourse, derivational process.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy axborot almashinuvi keskin rivojlanib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik, investitsiyalar va moliyaviy munosabatlarning kengayishi iqtisodiy matnlarni sifatli tarjima qilish zaruratini kuchaytirdi. Shu sababli mazkur mavzu ayniqsa dolzarbdir chunki, iqtisodiy terminologiyani tarjima qilish masalalari zamonaviy tarjimashunoslikning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy terminlar iqtisodiyot fanining konseptual apparatini tashkil etadi. Ular iqtisodiy jarayonlar, moliyaviy instrumentlar va bozor munosabatlarini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Termin muayyan fan yoki soha tushunchasini ifodalovchi maxsus til birligi hisoblanadi. Iqtisodiy terminlar aniqlik, tizimlilik, ilmiylik va bir maʼnolilikka intilishi bilan ajralib turadi. Masalan, inflation, investment, capital, liquidity, asset va liability kabi terminlar xalqaro iqtisodiy diskursda keng qoʻllanadi.

Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundaki, tarjima nazariyasida terminlarni tarjima qilish ekvivalentlik va adekvatlik tamoyillariga asoslanadi. Ekvivalentlik manba tilidagi termin mazmunini maqsad tilida toʻliq aks ettirishni nazarda tutadi. Adekvatlik

esa terminning kommunikativ vazifasini saqlashga qaratilgan. Kognitiv lingvistika terminlarni inson tafakkuri bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Iqtisodiy terminlar ma‘lum konseptlarning lingvistik ifodasi hisoblanadi. Shu sababli tarjimon termin ortidagi konseptual mazmunni ham tushunish muhim hisoblanadi.

ASOSIY QISM

So‘nggi yillarda iqtisodiy terminologiyani tarjima qilish masalasi tarjimashunoslik, terminologiya va kognitiv lingvistika yo‘nalishlaridagi tadqiqotlarning diqqat markazida turibdi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kengayishi hamda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida yangi iqtisodiy tushunchalar va terminlarning paydo bo‘lishi ularni turli tillarga adekvat tarjima qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Iqtisodiy terminlarni tarjima qilishning nazariy asoslari terminologiya nazariyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Terminologiya fanining asoschisi hisoblangan E. Vüster terminlarni muayyan fan sohasi tushunchalarini ifodalovchi maxsus til birliklari sifatida tavsiflaydi va ularning aniqlik, bir ma‘nolilik hamda tizimlilik xususiyatlariga ega bo‘lishini ta‘kidlaydi¹. Ushbu yondashuv iqtisodiy terminlarni tarjima qilishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarjima nazariyasida terminlarning ekvivalentligini ta‘minlash masalasiga kata e‘tibor qaratilgan. J. Cetford tarjimani bir til birliklarini boshqa til birliklari bilan almashtirish jarayoni sifatida talqin qilib, terminlarni tarjima qilishda semantik va funksional muvofiqlikni saqlash zarurligini ko‘rsatadi². P. Nyumark esa ilmiy-texnik va iqtisodiy terminlarni tarjima qilishda transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash hamda tavsifiy tarjima usullarining samaradorligini asoslab bergan³.

Rus va o‘zbek tilshunosligida terminologiya masalalarini o‘rganishga V.M. Leychik, S.D. Shelov, A. Hojiyev, H. Dadaboyev kabi olimlar salmoqli hissa qo‘shganlar. V.M. Leychik terminologik birliklarning tizimlilik xususiyatlarini tadqiq etib, terminlarni tarjima qilishda ularning konseptual mazmunini saqlash muhimligini ta‘kidlaydi⁴. A. Hojiyev esa o‘zbek terminologiyasining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tahlil qilib, milliy termin yaratish tamoyillarini ishlab chiqqan⁵.

Zamonaviy tadqiqotlarda iqtisodiy terminlarni kognitiv nuqtayi nazardan o‘rganish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, iqtisodiy terminlar nafaqat til birligi, balki ma‘lum iqtisodiy bilim va konseptlarni ifodalovchi kognitiv struktura sifatida talqin qilinmoqda. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tarjima jarayonida terminning faqat

¹ Vuster E. Introduction to the General Theory of Terminology and Terminological Lexicography, 1979. P 21-23.

² Katford J.C A Linguistic Theory of Translation., London Oxford University Press, 1965 P 45.

³ Nyumark P.A Textbook of Translation. New York, Prentice Hall International, 1988 P 81-83.

⁴ Leychik V. M Terminovidenie: predmet, metod, struktura, 2007 P 44-47.

⁵ Hojiyev A O‘zbek tili terminologiyasi masalalari. Toshkent, Fan, 1985 B 39-42

lingvistik shakli emas, balki uning ortida turgan konseptual mazmuni ham hisobga olinishi lozim. Shu sababli iqtisodiy terminlarni tarjima qilishda kognitiv-ekvivalentlik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy terminlarni tarjima qilishda asosan lingvistik ekvivalentlikka e'tibor qaratilgan bo'lsada, terminlarning konseptual va madaniy xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, ingliz va o'zbek tillaridagi iqtisodiy terminlarning semantik strukturasi qiyosiy tahlil qilish hamda ularning kognitiv asoslarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar cheklangan. Mazkur tadqiqotning o'ziga xos jihati shundaki, unda iqtisodiy terminlarni tarjima qilish jarayonida lingvistik, kognitiv va pragmatik omillar birgalikda tahlil qilinadi. Bu yondashuv terminlarning faqat shakliy o'xshashligini emas, balki ularning mazmuni, vazifasi va iqtisodiy matnlarda qo'llanish xususiyatlarini ham hisobga olish imkonini beradi. Natijada iqtisodiy terminlar uchun mos ekvivalentlarni aniqroq tanlash va tarjima sifatini yaxshilash mumkin bo'ladi. Shuningdek, tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi iqtisodiy terminlarning shakllanish mexanizmlari, o'zlashish jarayonlari hamda tarjima strategiyalari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Bu esa iqtisodiy terminologiyani milliy va xalqaro xususiyatlarini aniqlash hamda terminlarni standartlashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari iqtisodiy terminologiyani tarjima qilishning nazariy asoslarini takomillashtirish, iqtisodiyot sohasidagi ilmiy va amaliy tarjimalar sifatini oshirish hamda o'zbek iqtisodiy terminologiyasini boyitishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot davomida iqtisodiy terminologiya tarjimasi masalalarining nazariy asoslari tahlil qilinib, iqtisodiy terminlarning shakllanishi, rivojlanishi va tarjima jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tahlili iqtisodiy terminlarni tarjima qilishda ekvivalentlik, aniqlik va terminologik izchillikni ta'minlash muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida iqtisodiy terminlarni tarjima qilishda faqat lingvistik omillarga emas, balki kognitiv, pragmatik va madaniy omillarga ham e'tibor qaratish zarurligi aniqlandi. Ayniqsa, globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi iqtisodiy terminlarning paydo bo'lishi ularni tarjima qilishning samarali usullarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Shaxsiy nuqtai nazardan, iqtisodiy terminlarni tarjima qilish jarayonida terminning tashqi shaklidan ko'ra uning konseptual mazmunini to'liq anglash va maqsad tilida qayta ifodalash muhimroq hisoblanadi. Chunki terminning asl mohiyati va iqtisodiy mazmuni saqlanib qolgandagina tarjimaning kommunikativ samaradorligi ta'minlanadi. Shunday qilib, iqtisodiy terminlarni tarjima qilish murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda lingvistika, terminologiya, tarjimashunoslik va kognitiv fanlarning o'zaro bog'liqligi muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda qo'llanilgan

kompleks yondashuv iqtisodiy terminlarning mazmuni va xususiyatlarini chuqurroq tushunishga, shuningdek, ularning o'zbek tilidagi mos muqobillarini aniqlashga yordam beradi. Natijada tarjima sifati va aniqligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, mazkur tadqiqot natijalari iqtisodiyot sohasidagi ilmiy va amaliy tarjimalar sifatini oshirish, iqtisodiy terminologiyani standartlashtirish hamda o'zbek tilining terminologik bazasini boyitishga muayyan darajada hissa qo'shadi. Kelgusida iqtisodiy terminlarning kognitiv-semantik xususiyatlarini korpus lingvistikasi va raqamli texnologiyalar asosida tadqiq etish ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Wüster E. Introduction to the General Theory of Terminology and Terminological Lexicography. – Vienna: Springer-Verlag, 1979. – 246 p. – Tadqiqotda foydalanilgan sahifalar: 15–28-betlar.
2. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – London: Oxford University Press, 1965. – 103 p. – Tadqiqotda foydalanilgan sahifalar: 20–35-betlar.
3. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall International, 1988. – 292 p. – Tadqiqotda foydalanilgan sahifalar: 95–103-betlar.
4. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – Москва: КомКнига, 2007. – 256 с. – Фойдаланилган саҳифалар: 38–57-бетлар.
5. Шелов С.Д. Терминология и профессиональная лексика: состав и функции. – Санкт-Петербург: Наука, 2018. – 312 с. – Фойдаланилган саҳифалар: 84–96-бетлар.
6. Ҳожиёв А. Ўзбек тили терминологияси масалалари. – Тошкент: Фан, 1985. – 156 б. – Фойдаланилган саҳифалар: 42–51-бетлар.
7. Дадабоев Ҳ. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Фан ва технология, 2019. – 224 б. – Фойдаланилган саҳифалар: 67–82-бетлар.
8. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 248 p. – Pages used: 31–48.